



## «O'zmilliybank» AJ va "ACCENTLINE" MCHJ tomonidan aksiyani o'tkazish qoidalari

### I. UMUMIY QOIDALAR

**1.1.** Ushbu aksiya qoidalari 1-tomon (keyingi o'rinlarda – «O'zmilliybank» AJ) va 2-tomon (keyingi o'rinlarda – "ACCENT LINE" MCHJ/Bosch) o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va Soliq kodeksiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**1.2.** Ushbu qoidalar Bosch bilan hamkorlikda o'tkaziladigan aksiyani (keyingi o'rinlarda – Aksiya) tartibga solish uchun ishlab chiqilgan bo'lib, uning maqsadi yangi mijozlarni – «O'zmilliybank»ning plastik kartalar egalari bo'lgan jismoniy shaxslarni jalb qilish, kartalar emissiyasini oshirish, savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarida kartalar orqali tranzaksiyalar hajmi va sonini ko'paytirish, shuningdek, mijozlarni plastik kartalardan faol foydalanishga undash va Bank obro'sini oshirishdan iborat.

**1.3.** Aksiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston Respublikasida rezident hisoblangan jismoniy shaxslar orasida o'tkaziladi (keyingi o'rinlarda – "Ishtirokchilar"/"Ishtirokchi").

**1.4.** Aksiya muddati: 2025-yil 8-martdan 2025-yil 31-martgacha (shu kuni ham kiradi).

**1.5.** Aksiya O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziladi.

### II. AKSIYANING SHARTLARI VA O'TKAZISH TARTIBI

**2.1.** Aksiyada «O'zmilliybank»ning barcha plastik kartalari ishtirok etadi:

- MasterCard Standard, MasterCard Gold, MasterCard Platinum, MasterCard World Elite
- Visa Classic, Visa Gold, Visa Platinum, NBU-NAK Visa Gold, NBU-NAK Visa Platinum, Visa Infinite
- UzCard, Humo

**2.2.** Aksiyada ishtirok etish uchun mijoz «O'zmilliybank»ning plastik kartasi orqali Bosch savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalaridagi terminallarda mahsulot yoki xizmatlar uchun to'lov amalga oshirishi kerak (internet orqali to'lov hisobga olinmaydi).

**2.3.** Har bir xariddan 6% miqdorida oshirilgan keshbek mijozning Bosch akkauntiga tranzaksiya amalga oshirilishi bilan oq ball ko'rinishida tushadi. Bosch kartasi mijoz nomiga ochiladi.

**2.4.** To'plangan ballardan ikkinchi xariddan boshlab foydalanish mumkin, bunda xarid summasining 50% gacha bo'lgan qismi ballar bilan qoplanishi mumkin.

**2.5.** Oshirilgan keshbek faqat «O'zmilliybank»ning plastik kartasi orqali to'lov qilinganda hisoblanadi.

**2.6.** Boshqa banklarning kartalari orqali to'lov qilinganda keshbek miqdori Bosch qoidalariga muvofiq belgilanadi.

**2.7.** Aksiya butun O'zbekiston bo'ylab rasmiy Bosch do'konlarida o'tkaziladi.

### III. YAKUNIY QOIDALAR

**3.1.** Aksiya haqida ma'lumot va reklama materiallari Bankning rasmiy veb-sayti ([www.nbu.uz](http://www.nbu.uz)) va quyidagi rasmiy axborot kanallarida joylashtiriladi:

- Telegram: [t.me/nbu\\_official](https://t.me/nbu_official)
- Facebook: [www.fb.com/uznbu](https://www.fb.com/uznbu)
- Instagram: [www.instagram.com/nbu.official](https://www.instagram.com/nbu.official)



Bundan tashqari, Bank o'z qaroriga ko'ra, boshqa ommaviy axborot vositalarida ham e'lon berishi mumkin.

**3.2. Bank quyidagilar uchun javobgar emas:**

**3.2.1.** Ishtirokchilar tomonidan Bosch savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalarida sotib olingan mahsulot va xizmatlarning sifati. Ushbu masalalar bo'yicha da'volar bevosita Bosch savdo va xizmat ko'rsatish korxonalariga menejerlariga yuboriladi.

**3.2.2.** Bosch yoki Bankning savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarida uchinchi shaxslarning harakatlari natijasida yuzaga kelgan texnik nosozliklar, kechikishlar yoki tranzaksiyalarni amalga oshirishning imkonsizligi.

**3.2.3.** Bosch yoki to'lov tizimlari tomonidan sodir etilgan xatoliklar yoki kechikishlar tufayli noto'g'ri yoki o'z vaqtida hisoblanmagan keshbek.

**3.2.4.** Ishtirokchilarning o'z xatti-harakatlari yoki harakatsizligi natijasida keshbek olish imkoniyatini yo'qotishi yoki ballardan foydalana olmasligi.

**3.2.5.** Akkauntga kirish yo'qolishi yoki uchinchi shaxslar tomonidan ballarning noqonuniy ishlatilishi.

**3.3.** Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi ushbu Qoidalar bilan to'liq tanishganligini va ularga roziligini tasdiqlaydi. Shu jumladan, quyidagilarga rozilik bildiradi:

**3.3.1.** Aksiya doirasida shaxsiy ma'lumotlarini taqdim etish va ularni qayta ishlash.

**3.3.2.** Agar Aksiya davomida Ishtirokchi uchinchi shaxslarning huquqlarini buzgan bo'lsa va buning natijasida uchinchi shaxslar Bankka da'vo bildirsa, Ishtirokchi bunday nizolarni mustaqil ravishda hal qilish uchun javobgar bo'ladi.

**3.4.** Bank O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, Aksiya shartlarini o'zgartirish huquqiga ega bo'lib, bu haqda tegishli ma'lumotlarni Bankning rasmiy veb-saytida joylashtiradi. Ishtirokchilar Aksiya shartlari yangilanishini mustaqil ravishda kuzatib borishlari shart.

**3.5.** Aksiya bilan bog'liq barcha nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal qilinadi.